KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FARAVON HAYOT GAROVI

Toshqulova Lola Hudoyberdi qizi, Guliston davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti
e-mail: lolatashkulova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bosh qomusimiz bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi uning to‘liq mohiyati, davlatimizning rivojlanishi va shakllanishida tutgan o‘rni va xalq manfaatlari yo‘lida tashkil etilgani kabi bir qancha ma’lumotlarni tahlil qiladi hamda Konsitutsiya xalqchil davlat barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi ekanligini keng bayon etib, bir qancha fikr mulohazalar yuritadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Respublika, Konstitutsiya, Konsitutsiyaviy huquq, xalq, taraqqiyot, davlat, huquq, qonun, qomus;

CONSTITUTION - THE GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE

Abstract. This article analyzes the full essence of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, our main encyclopedia, its role in the development and formation of our state, and the fact that it was established in the interests of the people, and makes a number of comments, broadly stating that the Constitution is the basis of a democratic state for sustainable development and a prosperous life.

Keywords: Uzbekistan, Republic, Constitution, Constitutional law, people, development, state, law, law, dictionary;

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТИЯ СВОБОДНОЙ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В данной статье анализируется Конституция Республики Узбекистан, которая является нашим общим собранием, ее полная сущность, роль в развитии и становлении нашей страны, а также то, что она создана в интересах народа, и Конституция государства, ориентированного на людей, стабильного развития и процветания, объясняет, что она является основой жизни, и формирует ряд мнений.

Ключевые слова: Узбекистан, республика, Конституция, конституционное право, народ, развитие, государство, право, закон, словарь;

Kirish. Har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarni o‘zining asosiy qonunida ya’ni o‘z Konstitutsiyasida belgilab, mustahkamlab oladi. Xalqning xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang bo‘lgan konstitutsiyaga ega bo‘lgan mamlakat o‘z oldiga maqsad qilib olgan marralardan hech qachon og‘ishmasdan doimo oldinga qarab boradi. Tariximizga nazar soladigon bo‘lsak asrlar davomida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va inson huquqlari svilizatsiya jarayoni natijasida vujudga kelganini guvohi bo‘lamiz. Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta’lim olish mehnat qilish va saylanish kabi huquqlarini, so‘z hamda

e’tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Ko‘hna zaminimiz insonlari ko‘nglida ustuvor bo‘lgan adolat, haqiqat, iymon, oliyjanoblik, bag‘rikenglik, mardlik kabi ulug‘ insoniy fazilatlar Konstitutsiyamizdan munosib joy olganligi bizni quvontiradi. Umuminsoniy g‘oyalar, erkinlik, tenglik, birodarlik, millarlararo do‘stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi ko‘plab eng ulug‘ g‘oyalarga xizmat qiladi.

Metodologiya. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi, xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ishlab chiqish va uning muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan umumxalq muhokamasi bo‘lib o‘tdi. Bu takliflarning 56 foizi erkaklar, 40 foizi ayollar tomonidan, 4 foizi esa anonim tarzda bildirilgan. Unda xorijdagi vatandoshlar yuborgan takliflar ham inobatga olingan va ilmiy hamjamiyat ishtirokida muhokama qilinib, Konstitutsiyaviy komissiyaga taqdim etilgan. XXI asrda dunyoning 90 ga yaqin davlatida konstitutsiyaviy islohatlar muvofaqqiyatli o‘tkazildi. 57 ta davlatda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Shu jumladan O‘zbekistonda ham konstitutsion islohotlar o‘tkazildi. Yangi O‘zbekiston yangi qadamlar, yangi g‘oyalar va yangi konstitutsiya. Bu islohotlarning barchasi O‘zbekistonni yana bir karra dunyoga tanitadi desak adashmagan bolamiz. Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat tamoyilining konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanishi, inson qadrini yanada ulug‘lash, hozirgi va kelgusi avlodlarning farovon turmushini ta’minlashga qaratilganini alohida e’tirof etish zarur. Ushbu prinsipning isboti Konstitutsiyamizda yaqqol namoyon bo‘lgan. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan birinchi konsitutsiyamizning 1-moddasiga ko‘ra “O‘zbekiston suvren demokratik Respublika. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma‘noni anglatadi”. Yangi Konstitutsiyaga ko‘ra O‘zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suvren demokratik huquqiy ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “Ozbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma‘noni anglatadi. Ushbu moddada davlatimizning dunyoviy davlat ekanligi aniq takidlab o‘tilgan bolib, shu bilan birgalikda ijtimoiy huquqiy davlat deb aytib o‘tilgan. Ijtimoiy huquqiy davlat bu – demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng bo‘lgan va hech kim qonunlardan ustun turmaydigan davlatdir.

Natijalar. Bugun yurtimiz hayotining barcha jabhalarida o‘zgarish, islohotlar kuzatilmoqda. Yangi zamon ruhi kirib bormagan, inson manfaatiga ustuvor ahamiyat qaratilmayotgan biror-bir soha yoq. Ayniqsa, so‘nggi yetti yildagi tadrijiy rivojlanish bosqichlariga nazar solsak, ularning mazmun-mohiyatida xalqimiz xohish-irodasi, yillar davomida fuqarolarning tinchlik-xotirjamligiga to‘siq bo‘layotgan ogriqli muammolar yechimi turgani yanada ahamiyatlidir. Bir soz bilan aytganda, bunday tarixiy yemrilishlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Mazkur islohotlar zamirida aniq va rejali maqsad, qat’iyat, kuchli siyosiy iroda mujassam. Asosiy qomusimiz bo‘lmish Konstitutsiya davlat va jamiyat qurilishi asoslarini belgilab, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari tashkillashtirilishini tartibga soladi, saylov tizimini belgilaydi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat ramzlarini mustahkamlaydi. Shu bilan birgalikda Konstitutsiya xususiy mulk va bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi ijtimoiy-siyosiy tizim poydevorini qurib berdi. Konstitutsiyada mafkuraviy xilma-xillik, ko‘ppartiyaviylik, ya’ni biror muhim muammoni hal etish boyicha fikrlar xilma-xilligi ko‘zda tutiladigan siyosiy plyuralizm mustahkamlab qo’yilgan. Konstitutsiya davlatni emas, balki insonni birinchi o‘ringa qoydi. Inson uning hayoti, erkinligi,

sha’ni qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatlar deb e’lon qilinganligi ham quvonarli holat.

Muhokama. Yangi O‘zbekiston yangicha qarashlar bilan yaratilgan konstitutsiya avvalo xalqning fikr mulohazalari asosida yaratilgani ya‘ni konstitutsiyaning muallifi o‘zbek halqining o‘zi ekanligi taqsinga sazovordir. Barcha sohalarni: ta‘lim, tarbiya, san‘at, sport, fan, madaniyat kabi sohalarga birdek e‘tibor berilayotganligidan dalolatdir. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak inson o‘z huquqlari uchun kurashmagan davr bo‘lmagan. Insonlar o‘z huquqlari uchun kurashishi jarayonida insonning munosib hayot kechirishga huquqi yoqlangan ko‘plab g‘oyalar, nazariyalar hamda ta’limotlar yuzaga keldi va rivojlandi. Qolaversa o‘z tasdigini topgan vijdon erkinligini hurmat qilish xalqimizning teran ma’naviy an’analariga javob beradi. Davlat va diniy tashkilot orasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘grisida”gi Qonuni asosida boshqarib boriladi. Konstitutsiya dindorlarga ham, dunyoviy turmush tarzini kechiruvchi kishilarga ham davlat ta’lim tiziminining dunyoviy xarakterda bo‘lishini kafolatlaydi. Shu bilan birgalikda konstitutsiyamizning 31-moddasida tasdiqlab o‘tilganidek, Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir inson hayotida yuzaga keladigan muammolarni qonunchilik yordamida hal qiladi. Shu bilan birgalikda inson xatti-harakatlarining axloqiy normalari, uning axloqiy-ma’naviy fazilatlari vijdon, or-nomus, o‘z qadr-qimmati hissi kabi tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bular huquqiy ma’rifat huquqiy madaniyatning qo‘shimcha unsurlaridir. Konsitutsiya O‘zbekiston mustaqillikga erishgandan so‘ng qo‘yilgan muhim strategik maqsad hisoblanadi. Davlatimizning Konsitutsiyaviy huquqida davlatga hos barcha prinsiplar mujassamlashgani fikrimizning yorqin misoli hisoblanadi. Biroq Konsitutsiyaviy prinsiplar mujassamlashgan konstitutsiya o‘z-o‘zidan huquqiy davlat yaratmaydi. Huquqiy davlatni qonunlar emas, insonlarning o‘zi, jamiyat yaratadi. Qonunlarning ahamiyati shundaki, ular jamiyat qurilishining huquqiy asosi bo‘lib hizmat qiladi. Tevarak-atrofimizdagi hayot yanada pokiza, charog‘on va adolatli bo‘lishi ham o‘zimizga bog‘liqdir. Barcha o‘zbek xalqi qo‘lni qo‘lga berib, yelkama-yelka tursak, ona Vatanimizni huquqiy davlatga, baxtiyor va gullab-yashnagan mamlakatga aylantira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. / https://lex.uz/docs/-4872355.
2. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. Darslik, 9-sinf. – Toshkent, 2021.
3. Ijtimoiy davlat – inson huquq va manfaatlari ko‘zgusi “Adolat” SDP.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
5. Davlat va huquq asoslari. Darslik, 9-sinf. Toshkent, 2018.